

THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS OF FUTURE LABOR EDUCATION

Markayev Zafar

Lecturer at Samarkand State University

Basic terms:

Reform, labor education, technology, education, wood, metal, fabric, food, handicrafts, agriculture, teaching hours, vocational training.

Keywords: reform, labor, training, technological disciplines, educational direction, wood, metal, fabrics, foodstuffs, promisla, salinogo economy, teaching hours, profession, crafts, vocational guidance.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim tizimini isloh qilish, uning mazmunini yangilash, talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini, shaxsiy tajribalarini boyitish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash sohasida keng ko'lamlı izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari izlanmoqda. Bularning barchasi oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan fanlarni zamonaviylashtirish, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash hamda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarga keng yo'l ochish imkonini beradi.

Bu borada ta'lim olish, ma'naviy – ma'rifiy kamolat masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur. SHuning uchun mehnat ta'limi yo'nalishi talabalarida ijodiy faoliyatni bozor munosabatalari asosida shakllantirishda mustaqil ta'limning ahamiyatini ko'rib o'tamiz.

Uzluksiz ta'lim tizimida ham ko'p ming sonli o'quvchi-yoshlarni ana shu islohotlar ruhiyatida yangicha tarbiyalash, o'qitish ishlari ham doimiy ravishda zamon o'zgarishlariga mos holda yangilangan mazmunda o'zgartirilgan holda berib borilmoqda. Xuddi shuningdek, o'quvchi-yoshlarning ishlab chiqarish sohalari, xalq xo'jaligi, texnika va texnologiyalar turlari, ishlashi, tuzilishi to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini, ma'lumot va axborotlarini, bilim ko'nikmalarini shakllantiradigan, yangilab borishga bevosita mas'ullikni o'z zimmasiga oladigan mehnat va kasb-hunar ta'limi va tarbiyasi ham takomillashib, mukammallashib bormoqda.

Mehnat ta'limi faqat umumiy o'rta ta'lim maktablaridagina emas, butun uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi – yoshlarni xalq xo'jaligi, sanoat va ishlab chiqarishning turli sohalari bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishtirib boradigan ta'lim – tarbiya sohalaridan hisoblanadi. Ushbu ta'lim tarbiya sohasida o'quvchilar xalq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarini o'rganib borib, turli kasb-hunarlarni egallaydilar, hayotga va turmushning unumli mehnat va kasbiy faoliyatining turli jarayonlariga tayyorgarlik jarayonlarida faol ishtirok etadilar. Ana shundagina uzluksiz ta'lim tarbiya tizimining keyingi bosqichlarida o'quvchi-yoshlarning turli kasb-hunarlarga va hayotga tayyorgarligi ancha samarali va muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchilari o'quvchilarda 3 ta yo'nalish yuzasidan quyidagi bo'limlar materialshnoslik, asbob uskunalar mashina, mexanizm, stanoklar va ulardan foydalanish; mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi; xalq hunarmandchiligi bo'yicha: bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishlari kerak.

Jamiyat rivojlanishining barcha davrlarida mehnat ta'limi va bozor munosabatlari doimiy ravishda uzviy bog'liqlikka ega bo'lgan. Bozor va munosabat tushunchalari hamda mehnat ta'limida zamonaviy ishlab chiqarish bir birining integratsiyalashuv jarayonini ta'minlaydi. Bozor so'zining ma'nosi bu sotuvchi bilan oluvchi uchrashadigan joy, munosabat esa kishilar o'rtasidagi aloqa, muomaladir. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, mehnat ta'limi mashg'ulotlaridagi bozor – bu



o'qituvchi va talaba o'rtasidagi yangi axborotlarning almashinuvi, ishlab chiqarish jarayonidagi aloqa, ularning «Ustoz-shogird» faoliyati asosida bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi bo'lsa, munosabat – o'qituvchi va talaba o'rtasidagi yaqinlik, aloqa, muomala hisoblanadi.

Talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda kafedrada faoliyat ko'rsatayotgan «Yosh duradgor» va «Mohir qo'llar» ilmiy to'garaklarining ham ahamiyati juda katta, chunki to'garaklarda talabalar asosan mustaqil ishlaydilar va ijodiy izlanishlar olib boradilar.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, talabalar mavjud o'quv ustaxonasi va kabinetdagi texnik jixozlar va vositalar yordamida mustaqil ravishda o'quvchi bolalar uchun partalar bog'cha bolalari uchun stol va stulchalar, kompyuter uchun maxsus stollar, xontaxtalar, sabzi to'g'rash uchun taxtakachlar, elita pardalar, maxsus ish kiyimlari va boshqa kerakli buyumlarni ishlab chiqarmoqda. Natijada bu ishlarning hammasi talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, talabalar tomonidan tayyorlanayotgan buyumlarning sifati va dizayni hozirgi zamon talablariga mos kelganda nafaqat talabalarda ijodiy faoliyat shakllanadi, balki ishlab chiqarish orqali tushumlar keltirishga imkoniyat tug'iladi.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga etkazish qiyin. Shuning uchun talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilimi ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq.1997 y. 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni: / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq. 1997 y. 30-62 betlar.
3. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi. 4-maxsus son (Mehnat ta'limi) T.: Sharq. 1999 y. 288-382 betlar.
4. O'.Q.Tolipov, B.I.Muranov, Sh.S.Sharipov. Mehnat ta'limi fanidan yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti va modernizatsiyalashgan o'quv dasturi. T.: RTM. 2010 y. 32 bet.
5. O'.Q.Tolipov va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limidan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish. T.: O'zPFITI. 2000 y. 50 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil 6-aprel. 14 – son. 230 modda. 80 bet.

1	Muallifning F.I.Sh. (to'liq)	Markayev Zafar Ibodullayevich
2	Ilmiy darajasi va unvoni	Assistant
3	Ish joyi va lavozimi	Samarqand Davlat Universiteti, o'qituvchi.
4	Maqolaning mavzusi	Bo'lajak mehnat ta'limi yo'nalishi talabalarini ijodiy faoliyatini shakllantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati
5	Rukn nomi	
6	Telefon raqami	+99897 346 03 06
7	Elektron pochta manzili	zafar.ibodullayevich@gmail.ru